

AKSIYA QOIDALARI

“Oktobank” AJ ning jismoniy shaxslar (rezident va norezidentlar) uchun HUMO to‘lov tizimining plastik kartalarini bepul chiqarish bo‘yicha

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Aksiya qoidalar (keyingi matnda - “Qoidalar”) aksiyani tashkil etish va o‘tkazish tartibini, shuningdek jismoniy shaxslarning unda ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

1.2. Aksiyani o‘tkazishdan maqsad - “Oktobank” AJ (keyingi matnda - “Bank”) mijozlar bazasini kengaytirish va HUMO to‘lov tizimini ommalashtirish orqali plastik kartalarni bepul ochish va chiqarish imkoniyatini taqdim etadi.

1.3. Aksiyada barcha jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishi mumkin.

1.4. Aksiya o‘tkazish davri 2026 yil 4 maydan 2026 yil 31 mayga qadar (shu kunni qo‘shgan holda) belgilandi.

2. Atamalar va tushunchalar

2.1. **Aksiya** - Bankning ushbu Qoidalar doirasida HUMO kartalarini bepul chiqarish va ochishni nazarda tutuvchi maxsus taklifi.

2.2. **HUMO plastik kartasi/Karta** - Bank tomonidan jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan “HUMO” to‘lov tizimining debet bank kartasi.

2.3. **Aksiya ishtirokchisi** - Aksiya davrida HUMO kartasini chiqarish uchun Bankga murojat qilgan jismoniy shaxs (rezident yoki norezident).

2.4. **Kartani bepul chiqarish** - Aksiya ishtirokchisini Aksiyadan tashqari Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq bitta HUMO plastik kartasini chiqarish va ochish uchun komissiya to‘lashdan ozod qilish.

2.5. **Bank tariflari** - plastik kartalarni chiqarish, ularga xizmat ko‘rsatish va ular bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan undiriladigan komissiyalarning amaldagi shartlari va miqdorlari to‘plami.

2.6. **Mijoz** - HUMO plastik kartasi nomiga ochilgan va chiqarilgan rezident yoki norezident bo‘lgan jismoniy shaxs.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiya bir mijozga bitta HUMO plastik (debet) kartasini chiqarishga ta’aluqli.

3.2. Aksiyada ishtirok etish uchun jismoniy shaxs quyidagilarni bajarishi kerak:

- 2026 yil 4 maydan 31 mayga qadar (shu kunni qo‘shgan holda) Bankning filialiga murojaat qilishi yoki masofaviy kanallar orqali (texnik imkoniyat bo‘lsa) murojaat qilishi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bank talablariga muvofiq zarur hujjatlarni (pasport/ID-karta, STIR va Bank talab qilgan boshqa hujjatlar) taqdim etishi.

3.3. Bank aksiyada ishtirok etishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi (sabablarni tushuntirmasdan), agar ichki qoidalarda va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelsa (shu jumladan, nohalol harakatlar, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish va h.k.).

4. Aksiyani o'tkazish tartibi

4.1. Aksiya doirasida HUMO plastik kartasini chiqarish komissiyasi 0 (nol) so'mni tashkil etadi.

4.2. Boshqa barcha komissiyalar va tariflar (karta xizmat ko'rsatish, SMS-xabarnoma, mijoz tashabbusi bilan qayta chiqarish va boshqalar) Bankning amaldagi tariflariga muvofiq qo'llaniladi.

4.3. HUMO kartasi Bankning ichki reglamentlarida belgilangan muddatlarda (odatda murojaat kuni yoki keyingi ish kuni) chiqariladi.

4.4. Bank mijozdan identifikatsiya va pul oqimlarini legallashtirishga qarshi kurashish talablariga rioya qilish uchun qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

5. Axborot almashinuvi

5.1. Aksiya ishtirokchisi o'z shaxsiy ma'lumotlarini aksiyani o'tkazish va karta chiqarish maqsadida qayta ishlashga rozilik beradi.

5.2. Aksiya haqidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-saytida, mobil ilovasida va filiallarida joylashtiriladi.

6. Yakuniy qoidalar

6.1. Ushbu Qoidalar Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan sanadan kuchga kiradi va aksiya o'tkazish davrida amal qiladi.

6.2. Bank, agar bunday o'zgarishlar Mijozning moliyaviy ahvolini yomonlashtirmasa, o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni 10 kalendar kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirgan holda, ushbu Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli. O'zgartirishlar Aksiya doirasida allaqachon chiqarilgan kartalarga taalluqli emas.

6.3. Ushbu Qoidalarda tartibga solinmagan masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Bankning ichki hujjatlariga va bank kartasini chiqarish hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaga amal qiladilar.

6.4. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalarni to'liq va so'zsiz qabul qilishni bildiradi.

6.5. Ushbu Qoidalar rus va o'zbek tillarida tasdiqlanadi. Qoidalarning talqin qilinishida turlicha o'qish yoki noaniqlik yuzaga kelgan holatlarda rus tilidagi matn ustun kuchga ega bo'ladi. irom